

36. Noma'lum ayiriluvchini topish

Kamayuvchi – ayiriluvchi = ayirma

Ayiriluvchi =
= kamayuvchi – ayirma

$$8 - 1 = 7$$

$$1 = 8 - 7$$



$$\begin{array}{r} \bigcirc - 3 = \bigcirc \\ + \quad + \quad + \\ 2 - \bigcirc = 2 \\ = \quad = \quad = \\ \bigcirc - \bigcirc = 6 \end{array}$$



1. 1-sinf o'quvchilariga 10 nafar yuqori sinf o'quvchisi O'zbekistonda yashovchi turli millatlar haqida gapirib berdi. Ularning bir qismi darsning boshida, qolgan 4 nafari darsning oxirida so'zga chiqdi. Darsning boshida necha nafar o'quvchi so'zga chiqdi?

10

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

Amallarning to'g'riligini qanday tekshirish mumkin?

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

Yuqori sinf o'quvchilarining hammasi so'zga chiqqanini qanday tekshirish mumkin?

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--



2. Jadvalni to'ldiring.

Kamayuvchi	10	10	5	8	7	9	6	5	9
Ayiriluvchi	7								
Ayirma	3	6	1	5	6	0	4	2	3

36. Noma'lum ayriluvchini topish



3. Savolga javob topish uchun misollar tuzing va ularni yozing.

a) Amirga uyda bajarish uchun berilgan 8 ta vazifadan 3 tasi qoldi. Amir nechta vazifani bajarib bo'lgan?

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

b) Dilshodning 10 nafar o'rtog'idan 2 nafari qiz bola. Dilshodning necha nafar o'g'il bola o'rtog'i bor?



--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--



4. Qadamlab o'lchagan holda masofani aniqlang.

a) Kamron va Anora orasidagi masofa

b) Kamron va kuchukchasi orasidagi masofa



5. a) Son har safar 1 taga ortgan bo'lsa, qizil doiracha ichida qaysi son bo'lishi kerak?



b) Son har safar 2 taga kamaygan bo'lsa, havorang doiracha ichida qaysi son bo'lishi kerak?



6. 1-sinf o'quvchilari to'garak mashg'ulotida do'stlik haqida she'r o'qishdi. Kamron va Anora ikkalasi "Do'stlik" she'ridan 8 qator o'qidi. Agar Anora she'rning oxirgi 4 qatorini o'qigan bo'lsa, unda Kamron nechta qatorini o'qigan?

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--